



O'ZBEKISTONNING IQTISODIY RIVOJLANISHI VA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA INNOVATSION MAHSULOTLAR AHAMIYATI

Taubayeva Madina Kayrgaliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti

email: madiko77.77@mail.ru

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 7 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss7/a28	<i>Maqolada O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion asosda rivojlantirishda muhim deb hisoblangan elektronika, aloqa vositalari, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini eksport hajmini oshirishdagi va iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati o'rganilgan. Innovatsion mahsulotlar yaratishga asos bo'luvchi, import qilingan mahsulotlar YaIM hajmiga salbiy ta'siri mavjud bo'lsada, sanoat va axborot kommunikatsiya texnologiya xizmatlari eksportini oshirishga sabab bo'lishi tahlil qilingan.</i>
KEYWORDS	<i>Yalpi ichki mahsulot, aholi eksport, import, aloqa vositalari, elektr uskunalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalari</i>

Kirish (Introduction/Введение).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 – 2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son Farmonida keyingi yillardagi eng ustuvor va o'ziga xos vazifa bu — tezkorlik bilan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori ish haqqi taklif etadigan yangi ish o'rinlarini yaratish bo'lib qolishi, muammoning amaliy yechimlaridan biri sifatida innovatsiya — yuqori texnologik ish o'rni tamoyiliga asoslangan mamlakatning o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga qaratilgan alohida strategik amaliy dasturlar ishlab chiqish zarurligi takidlangan.

Mamlakatimizdagi so'nggi yillardagi islohotlar har bir sohaning yangi qirralarini ochmoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan zamonada ixtirolar, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g'oyalar, texnik ishlanmalar yaratish va ularni tijoratlashtirish raqobatbardosh, yuqori daromadli mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish esa mamlakatning ilmiy salohiyati va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini yanada oshiradi.

Hozirgi davrda barcha sohalarida xalqaro hamkorlikni kengaytirmay turib, jahon bozorlarida raqobatbardoshlikka erishish imkoniyat yo'q. Chunki, ilmiy ishlanma va texnologik yangiliklar jamiyat hayotining barcha sohalarini bog'lovchi mexanizmga aylanib bormoqda.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni innovatsion rivojlantirish istiqbollari korporativ strategiyalarning to'g'ri qabul qilinishi, iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotning xalqaro va regional boshqaruvlari bilan muvofiqlikka ega bo'lishi lozim. Innovatsion rivojlanishni ta'minlash uchun O'zbekiston hukumati tomonidan korporativ sohadagi tashkilotlarga chet el investorlariga ko'proq imkoniyatlar taqdim etilishi O'zbekistondagi innovatsion faoliyatni rivojlantirishga katta imkoniyatlar beradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili (Literature review/Литературный обзор).

Innovatsion rivojlanish – innovatsion omillardan foydalanish, ularni joriy etish orqali rivojlanish jarayoni hisoblanadi. Innovatsion rivojlanish innovatsion iqtisodiyotni vujudga keltiradi. Innovatsion iqtisodiyotning asosiy maqsadi mahsulot ishlab chiqarish miqdori va sifatini oshirgan holda, uning tannarxini minimallashtirish va texnologik, tashkiliy hamda

insoniy xaziralarning sifatini oshirib, ularni ilg'or xalqaro talablarga moslashtirishdir [1]. Iqtisodchi A.A. Mamatov, T.T. Jo'rayev va A.N. Erkayevlar o'z tadqiqot ishlarida innovatsion rivojlanish asoslarini nazariy jihatlarini yoritib bergan.

Ekspertlarning fikricha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot o'sishining 70-75 foizdan ortig'i innovatsiyalar hisobiga ta'minlanadi. Holbuki, birorta hududni ham, tarmoqni ham zamonaviy ilm va bilimlarsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Taraqqiy etgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 50 foizidan ortig'i "bilimlar iqtisodiyoti" hisobidan, ya'ni, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar tomonidan yaratilayotgani buni yaqqol isbotlamoqda [2]. M. Ashurov tadqiqotida innovatsiyalarning sanoatdagi ahamiyati yuqori ekanligini tahlil qilgan.

Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik mamlakatimizga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi natijasida innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarishda qo'llanilishini o'tirtiradi va oqibatda jahon standartlariga javob bera oladigan tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi hamda mamlakatning raqobatbardoshligi ortadi [3]. Tadqiqotchilar N.Ismailova va U.Dadabaevlar o'zlarining ilmiy ishlanmasida Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolik natijasida mamlakatimizda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining oshishi tahlil qilingan.

Iqtisodiy samaradorlikda logistikaning o'rni [4], investitsiya faoliyatini takomillashtirishda innovatsiyalarning zarurati [5], korporatsiyalarning rivojlanishida korporativ moliyaning roli [6,7], eksportni baholashda import amaliyotlari va innovatsion logistika xizmatlarining ahamiyati to'g'risida iqtisodchi olim S. Maxmudov o'z ilmiy ishlarida tahlillar olib borgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyatda innovatsion mahsulotlar raqobatbardoshlikni oshirish va o'sishni rag'batlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi [8,9,10]. Tadqiqotlar Janubiy Kavkaz mamlakatlari kabi rivojlanayotgan bozorlarda kichik va o'rta korxonalarning eksportga moyilligini tushuntirishda mahsulot innovatsiyalarining ahamiyatini ta'kidlaydi [11]. Biroq, yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining YaIM o'sishiga ta'siri mamlakatlar orasida farq qiladi, Bolgariya ijobiy munosabatlarni ko'rsatmoqda, Serbiya, Vengriya va Ruminiya esa yo'q [12]. Yangi eksport mahsulotlarining qiymatini o'lchash uchun yangi

eksport mahsuloti innovatsiyalari indeksi (EPII) taklif qilindi, bu firmaning eksport mahsuloti innovatsion ko'rsatkichlarini yanada aniqroq baholashni ta'minlaydi. Bundan tashqari, innovatsion moliyaviy texnologiyalarning (FinTech) rivojlanishi barqaror iqtisodiy o'sish, raqobatbardoshlik va ichki va tashqi bozorlarda investitsiya jozibadorligini oshirishning asosiy omili sifatida qaralmoqda.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).


Tadqiqotda emperik tahlil, SEM (Structural Equation Modeling), Pearson korrelatsiyasi tahlili va boshqa usullardan foydalanildi.

Olingan natijalar (Results/Результаты).

Olib borilgan tahlillar natijasida axborot kommunikatsiya texnologiyalar eksporti, sanoat mahsuloti hajmi, aloqa vositalari importi, elektr uskunalar importi va aholi sonining YaIM hajmiga ta'siri ko'rsatib berildi. Olingan tahlil natijalarining qonuniyat ekanligi testlar orqali tekshirildi.


Tahlillar (Analysis/Анализ).

O'zbekistonning iqtisodiyoti va tashqi iqtisodiy faoliyatida innovatsion mahsulotlar ta'sirini o'rganish uchun Jahon Banki va O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining innovatsiyalarda yetakchi turuvchi tarmoq ma'lumotlari olindi va tahlil qilindi. O'zgaruvchilarning birliklari turlicha bo'lganligi sababli har bir o'zgaruvchi logarifmlab olindi. Bunda mustaqil o'zgaruvchining bog'liq o'zgaruvchiga ta'siri foizlarda chiqishi tadqiqotning tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Dastlabki tahlilda aloqa vositalari importini axborot kommunikatsiya texnologiya xizmatlari eksportiga ta'siri hamda, elektr uskunalar importining sanoat mahsuloti hajmiga ta'sirini ekonometrik tahlil qilindi.




1-rasm. Aloqa vositalari importi va axborot kommunikatsiya xizmatlari eksporti o'rtasidagi bog'liqlikning SEM (Structural equation modeling) modeli.

Yuqoridagi modelda biz aloqa vositalari importi oshgani sari axborot kommunikatsiya texnologiya xizmatlari eksporti oshadi degan farazni ilgari surgandik. Chunki, aloqa vositalarining aksariyati axborot kommunikatsiya xizmatlarini amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi. Lekin bizni farazimiz o'zini oqlamadi. Bu modelda aloqa vositalari importi 1 foizga oshsa, axborot kommunikatsiya texnologiyalari eksporti 0,74 foizga kamayishi ma'lum bo'ldi.



2-rasm. Elektr uskunalar importi va sanoat mahsuloti hajmi o'rtasidagi bog'liqlikning SEM (Structural equation modeling) modeli.

Shuningdek, 2-rasmda elektr uskunalarini importi va sanoat mahsuloti hajmi o'rtasidagi o'zaro ta'sir o'rganildi. Elektr uskunalar importi oshgani sari sanoat mahsulotlari hajmi oshishi taxmin qilingan edi. STATA.15 dasturi orqali tahlil qilinganda yuqoridagi ilmiy farazimiz o'z tasdiqini topdi. Unga ko'ra, elektr uskunalar importining bir foizga oshishi sanoat mahsulot hajmini 2,3 foizga sabab bo'lishi aniqlandi va bu $p < 0,05$ da statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi.



3-rasm. Tadqiqotning yo'nalishi

Tadqiqotimiz davomida innovatsiyalarda yetakchi tarmoq sifatida axborot kommunikatsiya texnologiyalari eksporti, sanoat mahsulot hajmi, aloqa vositalari importi, elektr uskunalar importi, aholi soni olingan va bu o'zgaruvchilar mustaqil o'zgaruvchi sifatida SEM (Structural equation modeling) modelga olib kirilgan. Bog'liq o'zgaruvchi sifatida esa O'zbekistonning yalpi ichki mahsuloti hajmi olingan.

Tadqiqotimiz yo'nalishi sifatida 3-rasmdagi shaklni shakllantirdik. Unda har bir mustaqil o'zgaruvchini bog'liq o'zgaruvchi hisoblangan

O'zbekiston YaIMga ta'sirini SEM (Structural equation modeling) model orqali tahlil qilishni tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida belgilab oldik.

Yalpi ichki mahsulot va aholi soni o'rtasida 99 foiz ijobiy bog'lanish mavjud va bu $p < 0,05$ qiymatida statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini 1-jadval


Juftlik korrelatsiyalari (Pairwise correlations)

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) <u>YaIM</u>	1.000					
(2) <u>Aholi_soni</u>	0.995* (0.000)	1.000				
(3) <u>Aloqa_vosi_importi</u>	0.204 (0.416)	0.286 (0.250)	1.000			
(4) <u>Elektr_usk_importi</u>	0.898* (0.000)	0.899* (0.000)	0.201 (0.424)	1.000		
(5) <u>Sanoat_mah_hajmi</u>	0.990* (0.000)	0.996* (0.000)	0.307 (0.216)	0.917* (0.000)	1.000	
(6) <u>AKT_xizmatlari_eksporti</u>	0.798* (0.000)	0.750* (0.000)	-0.165 (0.514)	0.776* (0.000)	0.741* (0.000)	1.000

*** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.1$

ko'rsatmoqda. Shuningdek, boshqa mustaqil o'zgaruvchilar: elektr uskunalar importi, sanoat mahsulot hajmi va axborot kommunikatsiya texnologiyalari eksporti bilan bog'liq o'zgaruvchi – YaIM o'rtasida ijobiy bog'lanish mavjud va statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi.

Tadqiq qilinayotgan davrda axborot kommunikatsiya xizmatlari eksportining 1 foizga oshishi yalpi ichi mahsulot hajmini 0,017 foizga




4-rasm. YaIMga innovatsion mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan birliklar ta'siri.

oshirganligi aniqlandi. O'rganilayotgan omillar orasida aholi soni yalpi ichki mahsulotni oshiruvchi eng asosiy ko'rsatkich bo'lganligi ma'lum bo'ldi, ya'ni aholi sonining 1 foizga oshishi yalpi ichki mahsulotning 2,4 foizga oshishiga sabab bo'lganligi aniqlandi. Shuningdek, mamlakatda sanoat mahsulot hajmining 1 foizga oshganda yalpi ichki mahsulotning 0,99 foizga ko'tarilishiga sabab bo'lganligi hisoblab topildi.

O'rganilayotgan davr davomida elktur uskunalar importi va aloqa vositalari importining 1 foizga oshishi mos ravishda yalpi ichki mahsulotning 0,61 foiz va 0,56 foizga kamayishiga sabab bo'lganligi aniqlandi.

Tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan sohalarining yalpi ichki mahsulotga ta'sirining SEM (Structural equation modeling)



4-rasm. YaIMga innovatsion mahsulotlar ulushi yuqori bo'lgan birliklar ta'sirining SEM (Structural equation modeling) modeli.

modelida ta'sir qonuniyat yoki tasodif ekanligini aniqlovchi testlarga tekshirildi.

Boshqa omillar ta'sir qilmagan holatda axborot kommunikatsiya xizmatlari eksportining 1 foizga oshishi yalpi ichi mahsulot hajmini 0,017 foizga ko'tarilishiga sabab bo'ladi va bu $p < 0,05$ da statistik jihatdan ahamiyatli. Qolgan omillari ta'siri bo'lmaganda sanoat mahsulot hajmining 1 foizga oshishi yalpi ichki mahsulotning 0,99 foizga o'sishiga sabab bo'ladi va bu $p < 0,05$ qiymatida statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi hisoblab topildi. Shu bilan birgalikda, boshqa omillar ta'sir qilmaganda aholi sonining 1 foizga ko'tarilishi yalpi ichki mahsulotning 2,4 foizga oshiradi va $p < 0,05$ qiymatida statistik jihatdan ahamiyatli hisoblandi.

Aloqa vositalari importi va elektr vositalari importi yalpi ichki mahsulotning kamayishi ular ta'sir davomida boshqa omillar ta'siri mavjud bo'lmasa, yalpi ichki mahsulotning mos ravishda 0,61 foiz va 0,56 foizga kamaytirishi $p < 0,05$ qiymatda statistik jihatdan ahamiyatli hisoblanadi.

Modelimizda qiyosiy moslik indeksi (CFI-comparative fit index) qiymati 1 ni qabul qildi va bizning modelimiz qonuniyatga mosligi aniqlandi. Modelning statistik jihatdan ahamiyatli ekanligini tekshirishda $p < 0,05$ qiymatni qabul qildi va statistik jihatdan ahamiyatli ekanligi aniqlandi. Determinatsiya koeffitsiyenti 0,998 ga teng bo'ldi.

Maqola bo'yicha xulosa va takliflar (Conclusions/Заключения).

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida va tashqi iqtisodiy faoliyatida innovatsion mahsulotlar yuqori ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki, mamlakatda innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiyotning asosi bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlarining

yuqori bosqichga chiqayotganini ifodalaydi. Shuningdek, mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatda iqtisodiy raqobatbardosh bo'lishi uchun taklif qilayotgan mahsulotlari innovatsion mahsulotlar bo'lishi muhim omillardan hisoblanadi.

Biz tadqiqot olib borgan omillar ham mamlakat innovatsion mahsulotlar yaratishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillar qatoriga kiradi. Elektr uskunalari va zamonaviy texnika-texnologiyalarning importi sanoat mahsulot hajmini oshiradi. Shu sababli, yuqoridagi natijalarni inobatga olgan holda iqtisodiy siyosat yuritish lozim.

Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi tahlilida ham innovatsion mahsulotlar ta'siri yuqori hisoblanadi. Sanoat mahsulot hajmi va axborot kommunikatsiya texnologiya xizmatlari eksporti mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

References:

1. A.A. Mamatov, T.T. Jo'rayev A.N. Erkayev, (2019). Innovasion iqtisodiyot. –T.:, 456 bet.
2. M. Ashurov, (2023) O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion modelga o'tishining ayrim yo'nalishlari. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari -No 5 (3)-2023.ISSN: 2181-1342
3. N.S.Ismailova, U.A.Dadabayev, (2023). O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishning o'ziga xos xususiyatlari. Monografiya. - Toshkent, y. - 93 b.
4. Махмудов, С. (2023). ИҚТИСОДИЙ ТИЗИМДА ЛОГИСТИКА ИНФРАТУЗИЛМАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. Nashrlar, 1(1), 88–90. <https://doi.org/10.60078/2023-vol1-iss1-pp88-90>
5. Махмудов, С. Б. "Инвестиция фоалиятини молиялаштиришнинг ноанъанавий усуллари тақомиллаштириш.«." Халқаро молия ва ҳисоб» илмий журнал 5 (2020).
6. Makhmudov, S. . (2022). CORPORATE FINANCE AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF CORPORATIONS. Архив научных исследований, 2(1). извлечено от <https://journal.tsue.uz/index.php/archive/article/view/1658>
7. Джалилов, . Ф., & Махмудов, . С. (2022). МАКРОИҚТИСОДИЙ ЖАРАЁНЛАРДА ЭКСПОРТНИ БАҲОЛАШДА ИМПОРТ АМАЛИЁТЛАРИ ВА ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ. Economics and Innovative Technologies, 10(6), 191–202. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss6/a20
8. Krystian, Bigos., Krzysztof, Wach. (2021). Product innovation as the cause of export propensity in the caucasus: empirical evidence for armenia, azerbaijan and georgia. Central Asia and the Caucasus, 22(2):090-100. doi: 10.37178/CA-C.21.2.08
9. Ivana, Domazet., Darko, Marjanović., Deniz, Ahmetagić. (2022). The impact of high-tech products exports on economic growth: The case of Serbia, Bulgaria, Romania and Hungary. Ekonomika preduzeća, 70(3-4):191-205. doi: 10.5937/ekopre2204191d
10. Alejandro, Nikolaev., A., A., Antipov. (2023). International Innovative Activity of Companies in the Field of Passive Heat Reduction Systems (In Russ.). Ekonomika. Pravo. Innovacii, 4-16. doi: 10.17586/2713-1874-2023-2-4-16
11. Valeska, V., Geldres-Weiss., Joaquín, Monreal-Pérez., Dirceu, Tornavoi-Carvalho., Jorge, Tello-Gamarra. (2018). A new measure of international product innovation. Contemporary Economics, 12(4)
12. Yuliia, Tataryntseva., O, Pushkar., Tetiana, Nazarova., S., Osypova. (2023). Innovative products of the financial market in the conditions of the digital economy. Review of transport economics and management, 103-108. doi: 10.15802/rtem2022/277614..